

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING O‘QISH DARSLARIDA
MATN USTIDA ISHLASHNING YANGI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Rashidova Mehriya Muzafarovna

*Buxoro tuman 5- umumiy o‘rta ta’lim
maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: *Bunda bir soatlik darsni ya’ni o‘qish darsidagi mavzuning matnlarini innovatsion texnologiyalarni takomillashtirilgan shakli, didaktik o‘yinlar orqali o‘tkazish usulida o‘tkazish yoritib berilgan Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ta’lim jarayoni vaqtida interfaol uslublar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv darslari jarayoni vaqtida foydalanishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, o‘qish fanini o‘qitish jarayonini yanada shakllantirish borasida o‘z isbotini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar haqida to‘liq bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion texnologiyalar, interfaol uslublar, axborot texnologiyalari, interaktiv metodlar, o‘quvchi, o‘qituvchi, dars.*

Abstract: *This covers a one-hour lesson, i.e., conducting the texts of the topic in reading lessons through improved forms of innovative technologies and didactic games. This article fully describes a number of pressing problems and shortcomings awaiting proof regarding the use of innovative technologies in primary school native language lessons, increasing interest in using interactive methods, pedagogical and information technologies during the educational process, and further shaping the process of teaching reading.*

Keywords: *innovative technologies, interactive methods, information technologies, interactive methods, student, teacher, lesson.*

Bizning maktablarimiz jahonda eng ilg‘or maktablar bo‘lib qolishiga muhtaram prezidentimiz va davlat hukumati tomonidan hamma shart sharoit yaratilmoqda. Bizning ta’lim tizimlarimiz ham jahonda e’tirof etilgan ta’lim tizimlaridan biridir. Shu tufayli ham AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlar ta’limining ustalari bilan o‘tkazilgan uchrashuvlar va mulokotlarda respublikamiz ta’limi tizimiga yuqori baho berildi. Shuni ta’kidlash lozimki, Respublikamiz xalq ta’limi xodimlari oldida hozirgi kunda eng muhim vazifa - mustaqil O‘zbekistonning hozirgi ta’lim tizimlarini istiqloq ruhi bilan takomillashtirish, uni o‘zimizning mumtoz pedagogika an’analarini bilan boyitish, chet el pedagogikasidagi ilg‘or jihatlarni o‘zlashtirish, yangi - yangi samarali o‘quv predmetlarini ta’lim tarkibiga kiritish bilan jahon davlat standartlari darajasiga olib chiqishdir. Buning uchun esa bizning iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlardagi ilg‘or tajribalarni ta’lim tizimimizda qo‘llay bilishimiz maqsadga

muvofigdir. Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan yangilanish, modernizatsiya jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari jumladan, oliy ta'limda ham zamon talablariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularda yangi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishni, o'z ustida ishlash, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalana olish mahoratini oshirishni taqozo etmoqda. Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi bolaning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatini, ijodiy va mustaqil fikrlash, o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zini tuta bilish, yozma va og'zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, ta'limiy faoliyatni tashkil etish kabi ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

O'quvchilar turli shakldagi matnlarni o'qib, ulardan ma'no chiqarishlari, o'z fikrlarini shakllantirishlari va matn asosida xulosalar chiqarishlari mumkin. Ular o'qishdan o'rganish, maktabdagi darslarda, kundalik hayotdagi muloqotlarda ishtirok etish hamda shaxsiy zavq olish uchun foydalanadilar.

Bunday faoliyat davomida o'quvchilar matn mazmunini tushunadi, muallif fikrlarini baholaydi, asosiy g'oyalarni birlashtiradi va turli o'qish strategiyalarini qo'llaydi. Ular bu jarayonda o'qishga oid bilimlar, tafakkur (kognitiv) va tafakkurni boshqarish (metakognitiv) ko'nikmalaridan foydalangan holda o'qish maqsadlariga erishadilar.

Tasavvur qilishni rivojlantirish uchun hikoyalar yaratish, chizma-chilik va yarim tugallangan vazifalarni davom ettirish kabi usullar tav-siya etiladi. Yangicha yechimlarni topish o'quvchilarning analitik va ijo-diy fikrlashini kengaytiradi, bunda "Kayfiyat haqida axborot", "Sirli so'z", "Boshqaruvchini top", "Globoalifbo" hamda "Men topdim" kabi metodlar samarali hisoblanadi.

Sirli so'z metodi

Mavzuga oid rasm tanlab olinadi.

Rasm ustidan sirli so'zlar yoziladi.

So'zlar ustidan politelin mato yopishiriladi.

Politelin mato ustidan quruq sochiqchalar yopishtiriladi.

Sochiqchalar qatlami 3 yoki 4 qatlamda bo'lishi shart.

O'quvchilar so'zni o'qishlari uchun sochiqcha ustiga suv sepishadi.

Nam bo'lgan sochiqlar ortidan so'zlar chiqib keladi.

So'zlarni o'qib ma'nosini tushuntirib berishadi .

Ijodiy ishlash esa o'quvchilarning o'z g'o-yalarini erkin ifoda etishiga yordam beruvchi faoliyatlardir .

Masalan, san'at va qo'l mehnati darslari orqali amalga oshiriladi. Ushbu usullar o'quvchi-larning umumiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirib, kelajakda ularga o'z salohiyatlarini kengroq ochishga imkon beradi

"Globoalifbo" metodi

Sinfdagi har bir ishtirokchiga alifbo tartibida harflar beriladi.

Ishtirokchilarga, “Bugungi darsda o’zingizdagi qanday harf bilan boshlanuvchi qanday so’zlarni eslab qoldingiz?” – deb savol qo’yiladi.

O’yin davomiyligi 2 daqiqani tashkil etadi.

“Men topdim” metodi

Chiziq bo’ylab harakatlanib ishtirokchi kerakli harflarni tortib oladi.

Olingan harflar ishtirokida so’zni to’g’ri tuza olishi kerak.

So’z tuzilishi bilan “Men topdim”-deb ayta olishi kerak.

So’z aytilishi bilan o’quvchining chaqqonligi, fikrlay olishi darajasi belgilanadi.

O’qish savodxonligini rivojlantirishdagi asosiy usullar

Fonetik (tovush asosida) o’qitish usullari

Harflarni tovushlar bilan bog’lash o’rgatiladi.

O’quvchi harfni ko’rib, uning qanday talaffuz qilinishini tushunadi.

Boshlang’ich sinflarda foydalanish samara beradi.

So’z boyligini oshirish

Har kuni yangi so’zlar bilan tanishtirish.

Sinonim, antonim va ko’p ma’noli so’zlar ustida ishlash.

O’quvchilarni turli janrdagi matnlar bilan tanishtirish.

Matn ustida ishlash (ma’noli o’qish)

O’qilgan matn asosida savollar berish.

Matnning asosiy g’oyasini toptirish.

Matnni qisqacha bayon qildirish, tuzilishini tahlil qilish.

Talaffuz va intonatsiyani rivojlantirish

To’g’ri, ravon va ifodali o’qish mashqlari.

Dialoglar va she’rlarni ifodali o’qish orqali o’qish malakasini oshirish.

"5W + 1H" usuli

"5W + 1H" usuli — matnni chuqur tahlil qilish, tushunish va fikrlashni rivojlantirish uchun qo’llaniladigan samarali metod bo’lib, ingliz tilidagi quyidagi so’zlarning bosh harflari asosida nomlangan:

Who? — Kim?

What? — Nima?

When? — Qachon?

Where? — Qayerda?

Why? — Nima uchun?

How? — Qanday?

Usulning maqsadi: Matnni har tomonlama tahlil qilish. O’qilgan matn mazmunini chuqur tushunishga o’rgatish.

O’quvchilarda savol berish va unga javob izlash ko’nikmasini rivojlantirish. Mantiqiy fikrlashni shakllantirish.

Qanday qo’llaniladi? O’quvchilar o’qilgan matn asosida quyidagi savollarga javob tayyorlaydi:

Tartib: Savol: Maqsad:

1. Kim? Matndagi asosiy qahramonni aniqlash
2. Nima? Voqea yoki hodisaning mohiyatini aniqlash
3. Qachon? Voqea sodir bo'lgan vaqtni aniqlash
- 4 Qayerda? Voqea joyini belgilash
- 5 Nima uchun? Voqea yoki harakat sababini aniqlash
- 6 Qanday? Voqeaning amalga oshish usuli yoki jarayonini aniqlash

Misol uchun:
Matn: "Qaldirg'och bahorda keladi va uya quradi." Kim? — Qaldirg'och Nima? — Uya quradi

Qachon? — Bahorda Qayerda? — Odamlar yashaydigan joy yaqinida Nima uchun? — Bolalarini boqish uchun

Qanday? — Shox-shabba to'plash orqali uya quradi Afzalliklari: Matnni yaxlit tushunish ko'nikmasini rivojlantiradi. O'quvchilarning tanqidiy va mustaqil fikrlashini oshiradi. Matn ustida muloqot va fikr almashishga asos bo'ladi.

Yozma va og'zaki nutqni rivojlantiradi.

“Matndan so‘z, so‘zdan matn” metodi

Kecha maktab o'quvchisi edim. Adabiyot fani o'qituvchimizning darslari meni o'ziga maftun qilardi. Sehrli ertaklar olamiga tushib qolgandek bo'lardim, g'oyo. Ruboiylar, g'azallar o'qiganlarida butun sinf jimgina tinglardi. Lol bo'lib qolardik hammamiz...

Ancha yillar o'tib, o'sha ustozim sababli men ham shu kasbni tanladim. Robbinga shukrlar bo'lsinki, men mudom bu kasbimdan faxr va iftixor tuyg'usini tuyib yashayman.

Hosil bo'lgan so‘z – “KASRLAR”

Bu matn orqali “kasrlar” so‘zini hosil qildik. Bu matematika fani uchun edi. Buni boshqa fanlarga ham tatbiq qilsa bo'ladi.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki o'qish darslarini o'quvchilarga o'rgatishda har bir mashqni didaktik o'yin va turli metodlar orqali bajartirilsa dars juda qiziqarli bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishdan asosiy maqsad, o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, tahlil qilish o'qish darslarini yanada kengaytirish ushbu yo'lda innovatsion texnologiya va metodlardan foydalanishni kuchaytirishdir. Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilish, ta'lim samaradorligini yanada shakllantirish uchun tinimsiz izlanish hozirgi kunning ehtiyojiga aylanmoqda. Yangi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish pedagoglar oldida turgan muammolardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon Sariyev Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent 2022

2.R.Ishmuhamedov,M.Yuldashev Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogic texnologiyalar. Toshkent 2016

3. O.Roziqov,B.Adizov, G.Najmiddinova Umumiy Didaktika. Toshkent 2012

4. D.Baynazarova O'qish 1 sinf II qism Toshkent 2023

5. D.Baynazarova O'qish 2 sinf II qism Toshkent 2023

6. D.D.Baynazarova,M.E.Toirova O'qish 4 sinf I I qism Toshkent 2023

7. Shayxislamov, N.Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash mahorati. Science and Education,2020.

8. Shayxislamov, N., & Baykabilov, U.Til – millatning ma'naviy merosi.

Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari . T.2020.

9. Xolbekov, S. B.Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish samarasi. Science and Education,2020.

10. Sayidahmedov N."Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". – T.: 2003.